

**O‘zbekiston**  
**Metama‘lumot**  
**Iste‘mol narxlari indeksi**

**0. Asoslar**

**0.1 Qonuniy muhit**

**0.1.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o‘rgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo‘mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul va ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma‘muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o‘z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta‘lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig‘iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma‘lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma‘lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to‘g‘ri keladigan va muvofiqlashgan bo‘lishi kerak.

**0.1.2 Ma‘lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish**

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

#### 0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

#### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistik biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Iste'mol narxlari indeksi (INI) ni shakllantirish bo'yicha Markaziy apparatda 5 nafar xodim, kuzatuvga tushgan hududiy shahar va tuman statistika bo'limlarida 1 tadan xodim, hududiy statistika boshqarmalarining narx statistikasi bo'limlarida 3-4 nafar xodimlar shug'ullanadi.

Iste'mol narxlari statistikasi ma'lumotlarini shakllantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xodimlar soni yetarli darajada.

Barcha hodimlar oliy ma'lumotga ega bo'lib, har 2 yilda kamida 1 marta Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar markazi o'quv kurslarida o'z malakalarini oshiradilar. So'ngi 3 yil davomida Markaziy apparat xodimlarining 3 nafari narxlar statistikasiga oid halqaro o'quv kurslari va seminarlarda ishtirok etishgan.

Har bir ish o'rni lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan.

Dasturiy ta'minotlar bevosita Davlat statistika qo'mitasining o'zida ishlab chiqilgan bo'lib, zarurat tug'ilganda kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarni bajarishda dasturiy ta'minotni yangilash va unga qo'shimchalar kiritish imkoni beradi

Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan Iste'mol narxlari statistikasiga oid vazifalarni amalga oshirishda ajratilayotgan moddiy resurlar yetarli darajada.

Elektron hisoblash resurslarni himoyalash yetarli darajada ta'minlangan.

## 1. Yaxlitlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-

modda, §6) Davlat statistika qo‘mitasining prinsiplari beg‘arazlikni ta‘minlashi belgilanga.

### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonolari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

### 1.1.3 Statistika ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistika ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistika ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonun (2002 yil) va Qo‘mitaning 368-sonli qarori veb-saytga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlarga e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlarini e‘lon qilinish vaqtidan oldin ko‘rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma‘lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo‘mita Raisi statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

### 1.2.3 Statistik ma'lumotlarni belgilash

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamiyatga e'lon qilinayotgan ma'lumotlar ma'lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

### 1.2.4 Usuliyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi usuliyatga o'tishdan, mavjud usuliyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli usuliy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

### 1.3. Axloq me'yorlari

#### 1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Metodologiya

### 2.1 Konsepsiya va ta'riflar

#### 2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

Iste'mol narxlari indeksi (INI) – inflyatsiya darajasini ifodalaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, o'rtacha iste'molchi xarid qiladigan tovar va xizmatlarning o'zgarish to'plami qiymatining umumiy o'zgarishini hisoblaydi, ya'ni, ma'lum davr mobaynida tovar va xizmatlar iste'moli miqdorining o'zgarish bo'lgan holida, aholining iste'mol xarajatlari umumiy miqdorining o'zgarishini ifodalaydi. Iste'mol narxlari indeksida mamlakatning barcha hududlari bo'yicha xilma-xil tovar va xizmatlar narxlarining harakati o'rtacha holga keltiriladi.

O'zbekiston Respublikasida iste'mol narxlari indeksini hisoblash tizimi 1994 yilning yanvar oyidan boshlab Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ)ning texnik ko'magi asosida joriy etilgan.

INI ni hisoblash "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanmaga: Nazariya va amaliyot" (XVJ, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, BMT YeIK, Butunjahon banki va XMT, 2007 yil) asosan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2017 yil 28 dekabrda 6-son qarori bilan tasdiqlangan) Tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish va iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha usuliy nizomga asosan shakllantiriladi.

Yangilangan usuliy nizomni amaliyotga joriy qilish 2018 yildan boshlab amalga oshirilgan. Ushbu davrdan e'tiboran meva-sabzavotlar guruhining o'zgaruvchan vaznlardan o'zgarish salmoq vaznlarga o'tilgan.

## 2.2 Statistik qamrov

### 2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

#### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Institutsion birliklar qamrovi: uy-xo'jaliklari daromad va xarajatlari kuzatuv bo'yicha tanlov 2010 yildagi aholini mikro ruyxatga olishga asoslangan. Tanlov hajmi hozirgi kunga qadar o'zgarmay turib, o'z ichiga 10 000 uy-xo'jaliklarini oladi. Tanlov qamrovi umumiy uy-xo'jaliklari hajmining 0,2%ini tashkil qiladi. Har oyda yangi 833 uy-xo'jaliklari bo'yicha so'rov o'tkaziladi. Mamlakatning har bir hududida, shuningdek, shahar va qishloqlarda joylashgan turli daromadli uy xo'jaliklarini ifodalovchi uy xo'jaliklar sonini tanlashda tegishli namuna olish usuli qo'llaniladi.

Geografik qamrov: Uy ho'jaligi harajatlari va iste'mol narxlari kuzatuv Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar hamda Toshkent shahri hududlarida amalga oshiriladi. Narx ma'lumotlari iste'mol bozorlarining tovar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasi, shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va geografik joylashuviga qarab tanlab olingan viloyat markazlari, tuman va shaharlar, Nukus hamda Toshkent shaharlarida yig'iladi. Narx ma'lumotlari kuzatuv amalga oshiriladigan hududlar tanlovi ulardagi aholi soni va chakana tovar aylanmasi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. 2019 yilga kelib iste'mol narxlari kuzatuv amalga oshiriladigan hududlar qamrovi respublika umumiy aholi sonining 70 %, umumiy tovar aylanmasining 80 %dan ortig'ini tashkil etmoqda.

#### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Aholi qamrovi: Harbiy qismlar, qamoqxona, monastirlar, qariyalar uyi va talabalar uchun mo'ljallangan yotoqxona kabi muassasalarda yashovchi shaxslar uy xo'jaliklari kuzatuv qamrovi ostiga olinmaydi.

Tovarlar qamrovi: INIn shakllantirishda ishlatilgan mahsulotlar, xususiy uy-joy qiymati, shuningdek, shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan maxsulotlar narxlari hisobga olinmaydi.

Savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari qamrovi: Narx kuzatuvlari eksklyuziv tovarlar va xizmatlar bilan savdo qiluvchi ob'ektlarida amalga oshirilmaydi. Aynan o'xshash tovar (xizmat)larning o'rtacha narx (tarif)laridan birmuncha yuqori darajadagi narxlar kuzatilmaydi.

Boshqalar: INIn hisoblashda obligatsiya va aksiya kabi moliyaviy aktivlar hisobga olinmaydi, chunki bu kabilar hech qanday mahsulot turiga kirmaydi va uy xo'jaliklari a'zolarining shaxsiy ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilmagan. INIn hisoblashda chet el valyuta birliklari bilan bog'liq oldi-sotdildardan ham foydalanilmaydi.

#### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Noqonuniy maxsulot va xizmatlar, masalan, fohishabozlik va giyohvand moddalar savdosi INIn hisoblashga kiritilmagan.

## 2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

### 2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Uy xo'jaliklarida tanlama kuzatuvlar o'tkazish Jahon Banki va BMT YeIKning tavsiyasi asosida ishlab chiqilgan qo'llanma bo'yicha amalga oshiriladi.

2000 yilning aprel oyidan Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi (MIIT) asosida uy xo'jaliklarida kuzatuvlar o'tkazishning mahalliy sharoitga moslashtirilgan milliy tasniflagichidan foydalanilmoqda.

INIn shakllantirishda tovar (xizmat)larning milliy tasniflagichidan foydalaniladi.

## 2.4 Hisobga olish asosi

#### 2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

INIdagi salmoq vaznlar iste'molchining aniq narxga (tarif) baxolangan iste'mol xarajatlariga asoslangan ma'lumotlari asosida shakllanadi (savdo, transport ustama xarajatlari, qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz va boshqa soliqlar bilan).

INIning hisoblashda iste'molchining aynan harid qilgan tovar (xizmat) narxlari, shuningdek, iste'molchining barcha ustama va soliqlarni o'z ichiga olgan holdagi xarid qilgan narxlari ro'yxatga olinadi.

Mahsulotlar narxini aniqlash parametri tovarlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda (mahsulot turlari orasidagi siljishlar bundan mustasno) amalga oshiriladi.

#### 2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Tovar va xizmatlarning aynan xarid qilish vaqtidagi narxlari ro'yxatga olinadi. Muayyan turdagi xizmatlardagi (masalan, elektr-energiya, gaz va boshqalar) hisob-kitoblar hisoblash tamoyili asosida amalga oshiriladi.

#### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ushbu amaliyotlar MHT-2008 tamoyillariga to'liq mos keladi.

### 3. Aniqlilik va ishonchlik

#### 3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

##### 3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Uy xo'jaliklari kuzatuv qismi bo'yicha: istemol xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar iste'molchining xarid qilishdagi o'zgaruvchan faolligi va xarakterlarning har yillik ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Tanlanma uy xo'jaliklari majmuini shakllantirish 2 bosqichda amalga oshiriladi:

a) birinchi bosqichda dastlabki tanlov birliklari (DTB) miqdori har bir hududning shahar va qishloqlari uchun alohida aniqlashtiriladi.

Kuzatuvda dastlabki tanlov birliklaridan yarim yil davomida foydalanilib, undan so'ng butunlay yangisiga almashtiriladi (100% yarim yillik rotatsiya). Shu tarzda bir yil davomida ikki marta DTB tanlovi amalga oshiriladi. Har yarim yil uchun dastlabki tanlov birliklari 216 tani, har yil uchun 408 DTBni tashkil etadi. Bunday raqamlar har bir hudud bo'yicha (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sh.) mos ravishda o'rtacha 15 va 30 DTB tashkil qiladi.

b) DTB tanlovi o'tkazilgandan keyingi ikkinchi bosqichda barcha tanlab olingan mahalla va qishloqlarda dala ishlari boshlanguniga qadar, ularda yashovchi barcha uy-xo'jaliklar ro'yxati tuzilib, hududlar bo'yicha shahar va qishloqlar kesimida oddiy tasodifiy tanlov orqali tanlanadi.

2.2.1.2 bandidagi shartlardan tashqari barcha rezidentlar kuzatuv qamroviga olinadi. Bu

istisnolar kuzatuv natijalari tanlovi reprezentativligi va haqqoniyligiga ta'sir etmaydi.

Uy-xo'jaliklari tanlanma kuzatuv anketasi ma'lumotlarning dolzarbligini hisobga olib, doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladi.

Narx ma'lumotlarini yig'ish bo'yicha: iste'molchilar uchun ommabop, miqdori, turi hamda savdo va pullik xizmat ko'rsatish ob'ektlarining geografik qamrovi, har bir tovar hamda xizmatlarga aloqador, shuningdek, tanlangan ob'ektlar o'rtasida narx va tariflarni taqsimlash, narx va tariflar kuzatuv tanlovi uchun tovar va xizmatlar moxiyatini aks ettiradi.

Yangi tovar va xizmatlar aholi umumiy iste'mol xarajatlarining 0,1% dan kam bo'lmagan ulushni tashkil qilgandagina iste'mol narxlari kuzatuv to'plamiga kiritiladi.

Narx ma'lumotlarini yig'ish batafsil ravishda amalga oshirilishi - har bir davr uchun ma'lumotlarning taqqoslanishini ta'minlaydi.

INI tizimini tartibga solishda foydalaniladigan xalqaro standartlardagi yangi tartib-qoidalarni aniqlash maqsadida kuzatuvlar olib borilmoqda.

### 3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Narx statistikasi kuzatuvlari olib boriladigan muddat oylik e'lon qilinib borilayotgan indekslar davriyligi uchun yetarlidir.

Hududiy qamrov hamda tanlanma kuzatuv ob'ektlari umumiy hisobda talablarga to'liq javob beradi.

Asosiy ma'lumotlar tayanch va hisobga olish davri bilan muvofiqlashtiriladi.

### 3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

INIning hisoblash uchun narxlarni ro'yxatga olish har oyining 10-sanasidan 20-sanasigacha amalga oshiriladi

INIning shakllantirish va keyingi kerakli ko'rsatkichlarni MTUT tavsiyalariga muvofiq belgilangan muddatlarda asosiy ma'lumotlar taqdim etiladi.

## 3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

### 3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Tanlov bo'yicha amalga oshirilgan har bir kuzatuvdagi xatoliklar to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam ravishda kuzatib boriladi. Narxlar o'zgarishi, noto'g'ri tasniflash va ekstremal belgilar to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy tarzda tekshirib boriladi. Uy xo'jaliklari xarajatlari kuzatuv jarayonida javoblar borasida xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, uy xo'jaliklari spirtli ichimliklar guruhiga mansub mahsulotlarga bo'lgan xarajatlarni pasaytirib ko'rsatishlari mumkin. Ushbu sababga ko'ra spirtli mahsulotlar chakana savdosi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosan uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlarida o'zgartirishlar amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi barcha noodatiy ma'lumotlarda, shuningdek, ushbu ma'lumotlarda yuz bergan tub o'zgarish sabablari avvalgi davrlardagi ko'rsatkichlar bilan aniqlashtirilgan holda tekshiriladi.



### 3.3 Statistika usullari

#### 3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

XVJ missiyasining tavsiyasi bo'yicha respublikaning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda (1998 yilning 17 fevral-2 mart) 1998 yil may oyidan e'tiboran sabzavot maxsulotlar narxlarini hisobga olishning yana bir usullaridan biri, bunda yilning alohida mavsumlarida bo'lmaydigan tovar narxlari yil davomida sotuvda mavjud maxsulotlar, ya'ni, kartoshka yoki boshqa sabzavotlar, lekin yilda 2 marta yig'iladigan hosilning o'rtacha salmoq narxi, bu tovarning sotuvda oshib boruvchi hajmi hisoblanib, yangi hosil salmog'i yuritila boshladi. Shuningdek, XVJ missiyasining tavsiyasi bilan (1999 yil noyabr) 2001 yildan boshlab INIning oylik hisoblashiga kiruvchi, 14 asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlari narxlarining haftalik kuzatuv usulidan foydalanila boshlangan. 2018 yildan boshlab ushbu amaliyot to'xtatildi va aniq kundagi haqiqiy narxlar ro'yxatga olinmoqda.

Mavsumiy meva va sabzavotlarning iste'moldan to'liq yo'qolganida narxlarni shartli hisoblashda quyidagi indekslardan foydalaniladi:

- a) meva va poliz maxsulotlari – olma narxi o'zgarishi bo'yicha;
- b) sabzavotlar - piyoz narxi o'zgarishi bo'yicha.

2003 yildan 2017 yilgacha INIning hisoblashda meva-sabzavot maxsulotlari bo'yicha o'rtacha tortilgan narxlardan hisoblangan har oy yangilanadigan o'zgaruvchan salmoq vaznlaridan foydalanilgan. 2018 yildan boshlab INI shakllantirishda uning tarkibiga kiruvchi barcha tovar va xizmatlarning o'zgarish salmoq vaznlaridan foydalanilmoqda.

Yangi tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari kuzatuv to'plamiga kiritilishi alohida mezonga ko'ra, aholi umumiy iste'mol xarajatlari ulushida uning salmog'i 0,1% dan ortiq bo'lgan holdagina amalga oshiriladi.

#### 3.3.2 Boshqa statistika jarayonlari (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Salmoq vaznlarni aniqlashda uy xujaliklari sarf-xarajatlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

To'lov shaklidan qat'iy nazar tovar va xizmatlar narxlari iste'molchining harid qilish jarayonidagi narxlari hisobga olinadi.

Individual narx indekslarini hisoblash alohida savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish ob'ektlaridagi o'rtacha arifmetik qiymatlari asosida amalga oshiriladi. Qisqa muddatli narx indekslarini hisoblashda tayanch davr sifatida o'tgan oy, uzoq muddatli indekslar uchun esa o'tgan yilning dekabr oyi hisoblanadi. Bundan tashqari o'tgan yilning mos oyiga hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, shuningdek, choraklik (avvalgi chorakka va o'tgan yilning mos choragiga nisbatan) narx indekslari ham hisoblanadi.

Indekslni umumlashtirish Davlat statistika qo'mitasi tomonidan modifikatsiyalangan Laspeyres formulasi asosida amalga oshiriladi

INIdagi salmoq vaznlar har yili yangilanadi va fevral oyida INIga kiritiladi. O'zgargan vaznlar indeksini o'tgan yillarning indekslari bilan muvofiqlashtirish koefitsientlarni bog'lash yo'li orqari amalga oshiriladi.

### 3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

#### 3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Hududlardan olingan ma'lumotlar boshqa hudud ma'lumotlari, shuningdek, amaldagi ma'muriy jihatdan tartibga solinuvchi mavjud ma'lumotlar bilan solishtirgan holda tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda ma'lumotlar boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan ham taqqoslanadi (masalan, respublika hududida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining tovarlari narxlari yoki Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq amalga oshiriladigan narxlar monitoringi ma'lumotlari bilan solishtiriladi).

### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi (3.4.1ga qarang). Davlat statistika qo'mitasi zarur hollarda statistik tavofutlarni tekshiradi.

### 3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi (3.4.1ga qarang). Davlat statistika qo'mitasi zarur hollarda statistik tavofutlarni tekshiradi.

## 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

INI bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilmaydi.  
Salmoq vaznlarning retrospektiv tahlili o'zgargan vazn ma'lumotlarining INIga ta'sir darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.  
2018 yilda INIning shakllantirishda o'zgarish vaznlarga o'tilishida 2016 yildan boshlab o'zgarish vaznlari asosida INIning retrospektiv hisob-kitoblari amalga oshirildi.

## 4. Amaliy yaroqlilik

### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

#### 4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar tarqatishning tan olingan halqaro standartlar talablariga mos ravishda INI hisoblash har oyda amalga oshiriladi.

#### 4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Respublika bo'yicha INI quyidagi kompleks xarajatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- barcha tovar va xizmatlar;
- oziq-ovqat mahsulotlari;
- nooziq-ovqat mahsulotlar;
- xizmatlar.

### 4.2 Qiyosiylik

#### 4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Statistik ma'lumotlar davriylik, ichki qiyosiylik asosida tavsiflanadi.

#### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Oylik INI dinamik qatorlari ketma-ketligi 1994 yildan mavjud. 2003 yildan 2017 yilga qadar INI ni shakllantirishda meva-sabzavotlar guruhining o'zgaruvchan vaznlaridan foydalanilgan. 2018 yildan e'tiboran esa o'zgarmas vazn ma'lumotlari asosida hisoblanmoqda.

#### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan statistik ma'lumotlar bilan muvofiqligi ta'minlanadi.

### 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

#### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

INI bo'yicha ma'lumotlar yakuniy bo'lib hisoblanadi va u qayta ko'rib chiqilmaydi. Hisob-kitoblarda vaznlarni yangilash davriyligi yillik va yetarli darajada barqaror bo'lib hisoblanadi.

#### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

INI bo'yicha ma'lumotlar yakuniy bo'lib hisoblanadi va u qayta ko'rib chiqilmaydi.

#### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

INI bo'yicha ma'lumotlar yakuniy bo'lib hisoblanadi va u qayta ko'rib chiqilmaydi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

INI ma'lumotlari «Tovar va xizmatlarning iste'mol narxlar indeksini» byulleteni shaklida nashr etilib, shuningdek, manfaatdor foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan bosma yoki elektron shaklda ham taqdim etiladi.

Bundan tashqari indekslar to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytining «Narxlar» bo'limida ham mavjud (<https://stat.uz/uz/statinfo/narxlar> va <https://stat.uz/uz/438-biulleteny-uz/2118-tahliliy-byulletenlar2017>).

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

##### 5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

«Tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi» oylik byulleteni.

### 5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Chop etilmaydi.

### 5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari bo'yicha jadvallar.

### 5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

Narx indeksleri to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytining «Narxlar» bo'limida ham mavjud (<https://stat.uz/uz/statinfo/narxlar> va <https://stat.uz/uz/438-biulleteny-uz/2118-tahliliy-byulletenlar2017>).

### 5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Rasmiy saytda (<https://stat.uz/uz/182-ofytsyalnaia-statistika-uz/makropokazately-uz/2323-o-zbekiston-respublikasining-makroiqtisodiy-ko-rsatkichlari-3>).

## 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'zbekiston Respublikasining “Davlat statistika to'g'risida”gi qonuni, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi” Nizomi, Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish reglamenti va boshqa normativ hujjatlar asosida foydalanuvchilar so'roviga asosan statistik ma'lumotlar o'rnatilgan tartib asosida taqdim etiladi.

Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga, shuningdek, tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga asosan statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor ma'lumotlar bosma nashr yoki elektron shaklda ham amalga oshiriladi.

## 5.2 Metama'lumotlar

### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

Iste'mol narxlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlar hisob-kitoblarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/tseny/metodologiya> veb-saytiga joylashtirilgan.

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejaları – Oxirgi takomillashtirishlar

2018 yilda narx kuzatuvlari amalga oshiriladigan iste'mol tovarlari va xizmatlari ro'yxati yangilangan va 386 tagacha kengaytirilgan. Ilgari 350 turdagi tovar va xizmatlar narxlari kuzatuv

amalga oshirilardi.

CAPI texnologiyasi bo'yicha Toshkent shahar va Toshkent viloyatlarida planshet qurilmasi yordamida "pilot" usulida kuzatuvni joriy qilish.

## 9.2 Umumiy

### 9.2.1 Takomillashtirish rejalari – Qisqa muddatlilari

Kelgusidagi rejalari:

INIda ko'llaniladigan vaznlarni aniqlash uchun ma'lumotlar bazasini sifatli takomillashtirish, budjet uy-xujaliklari va iste'mol narxlar statistikasi kuzatuvda MIIT – 2018 mexanizmiga bosqichma-bosqich o'tishni joriy qilish.

- MIIT-2018 tasniflagichi asosida INIning agregatsiyalashga o'tish.

### 9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O'rta muddatlilari

Narxlar kuzatuv uslubiyotini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va yetakchi xalqaro tajribalaridan imkon darajasida foydalangan holda o'rta muddatli istiqbolli chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari rejalashtirilmoqda. Xususan, "Skanerlash" usuli yordamida "pilot" shaklidagi kuzatuvlarni amalga oshirish.

SAPI bazasi asosida palanshet qurilmalari yordamida narx ma'lumotlarini yig'ish texnologiyasini barcha hududlarda bosqichma-bosqich amalga oshirish.

## 9.3 Moliyaviy

### 9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Davlat statistika ishlari yillik dasturi doirasida moliyalashtirilgan.

### 9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O'rta muddatli

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

Aloqa bog'lash uchun shaxs <b>1</b>			
<i>F.I.O.:</i>	Umarov	Muxtor	
<i>Lavozim:</i>	Boshqarma boshlig'i		
<i>Bo'linma:</i>	Narxlar statistikasi boshqarmasi		
<i>Bo'lim:</i>			
<i>Departament:</i>	Narxlar statistikasi boshqarmasi		
<i>Idora:</i>	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi		
<i>Manzil (1 satr):</i>			
<i>Manzil (2 satr):</i>			
<i>Shahar/region:</i>	Toshkent sh.		
<i>Mamlakat:</i>	O'zbekiston Respublikasi		
<i>Pochta indeksi:</i>	100170		
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998	71	230-80-36
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>			
<i>Elektron manzil:</i>	M.Umarov@stat.uz		
Aloqa bog'lash uchun shaxs <b>2</b>			
<i>F.I.O.:</i>	Jomolov	Muzaffar	
<i>Lavozim:</i>	Bo'lim boshlig'i		
<i>Bo'linma:</i>	Narxlar statistikasi boshqarmasi		
<i>Bo'lim:</i>	Iste'mol narxlari statistikasi va INI bo'limi		
<i>Departament:</i>			
<i>Idora:</i>	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi		
<i>Manzil (1 satr):</i>			
<i>Manzil (2 satr):</i>			
<i>Shahar/region:</i>	Toshkent sh.		
<i>Mamlakat:</i>	O'zbekiston Respublikasi		
<i>Pochta indeksi:</i>	100170		
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998	71	230-80-38
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>			
<i>Elektron manzil:</i>			